

MAKTABGACHA YOSHGADI BOLADA O'ZI HAQIDAGI TASAVVURLARNING SHAKLLANISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8138678>

Zakirova Muxabbat Sabirovna

Farg'ona davlat universiteti psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi.

Farg'ona, O'zbekiston.

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshgadi bolada o'zi haqidagi tasavvurlarning shakllanishi bo'yicha olomlarning qarashlari va nazariy asoslari yoritilgan. Bolada o'zi haqidagi tasavvurlarning shakllanish bosqichlari va xususiyatlarini amaliy jihatdan o'rganilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar

"Men" konsepsiyasi, o'zi haqidagi tasavvurlar, "Men" - "Men emas", "Men"ni anglash, o'zini tanish.

Аннотация

В данной статье освещены народные взгляды и теоретические основы формирования Я-концепции у дошкольников. В практическом плане изучены этапы и особенности формирования Я-концепции ребенка.

Основные слова и понятия

концепция «я», образ себя, «я» - «не я», понимание «я», самосознание.

Abstract

In this article, people's views and theoretical bases on the formation of self-concepts in preschool children are highlighted. The stages and features of the child's self-concept formation were studied in a practical way.

Key words and concepts

"I" concept, self-concept, "I" - "not me", understanding of "I", self-awareness.

Mavzuning dolzarbligi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim - tarbiya berishni asosiy maqsad va vazifalari bolalarni jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantirish, intilishi va ehtiyojlarini qondirish, milliy va umuminsoniy qadryatlarga mustaqillik g'oyalari sodiq holda voyaga yetib borishini ta'minlash, ularni maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim- tarbiyasiga qo'yilgan davlat talablariga muvofiq maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan mazkur sohada islohotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini hozirgi zamon talablari va standartlari

asosida rivojlantirish, ularni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilayotgan e'tibor zamirida ham kelajagimiz egalarining hech kimdan kam bo'lmay ulg'ayishlari hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlashdek ezgu maqsad mujassam.

Kirish. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari, birinchidan, maktab yoshiga qadar bo'lgan bolalarning umumiy savodini chiqarish, bolalarda Vatanni sevish, u bilan g'ururlanish hissini uyg'otish, Konstitutsiyani o'rgatish, dunyoqarashini kengaytirish imkonini berayotgan bo'lsa, ikkinchidan, yosh bolali onalarning mehnat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarishga ham xizmat qiladi. Bolalarning qiziqish va intilishlarini hisobga olgan holda, ularga maktabgacha bo'lgan davrda har tomonlama puxta ta'lim va tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, qalbi va ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish, shu orqali ularni ona Vatanga muhabbat, pokiza orzular ruhida kamol toptirish bugungi kundagi eng muhim, eng dolzarb masalalardan biri ekanini ta'kidladi. Bugungi maktab bolasidan aniq bilimlarga emas, fikrlash ko'nikmasi, kattalar va tengdosh o'rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Shuning uchun bola maktabga qadam qo'yayotganida qanchalik bilimga ega ekanligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashishi ko'nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va mustaqil harakat qilishi muhimroq hisoblanadi.

Bolani biror narsaga o'rgatishgina emas, unda o'z kuchiga ishonchni oshirish, o'z g'oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish hamda unda "Men" kontsepsiyasini shakllantirish ham muhimdir.

Adabiyotlar tahlili. "Men" konsepsiyani o'rganish asrimizning birinchi o'n yilliklarida psixologiyaning an'anaviy kanalidan vaqtincha sotsiologiya sohasiga o'tdi. C.Kuli va D.Mid bo'lib, ular shaxsga yangicha qarashni - uni ijtimoiy o'zaro munosabatlar doirasida ko'rib chiqishni taklif qildilar⁹. Kuli 1912 yilda shaxsning boshqalar uni qanday baholashi haqidagi g'oyalari uning "Men"konsepsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlab, "ko'zgu o'zini o'zi" nazariyasini taklif qildi. Kuli birinchi bo'lib o'z "men"imiz haqidagi ma'lumotlarning asosiy manbai sifatida biz boshqa odamlardan oladigan "mulohazalar" muhimligini ta'kidladi. Jorj Mid ham insonning "Men"ining yaxlit psixik hodisa sifatida shakllanishi, mohiyatiga ko'ra, shaxsning "ichida" sodir bo'ladigan ijtimoiy jarayondan boshqa narsa emas, deb hisoblagan, uning ichida birinchi Jeyms tomonidan "Men ongli" va "Men-

⁹ Тертель А. Л. Психология. Курс лекций : учеб. пособие. - М. : ТК Велби, Изд-во Проспект, 2006. - 248 с.

obyekt sifatida”gi rollar aniqlangan. Bundan tashqari Mid madaniyatni assimilyatsiya qilish orqali (jamiyatning barcha a’zolari uchun umumiy ma’noga ega bo’lgan ramzlarning murakkab to’plami sifatida) inson boshqa odamning xatti-harakatlarini ham va boshqa odam bizning xatti-harakatlarimizni qanday bashorat qilishini ham taxmin qila oladi, deb taklif qildi. D.Mid shaxsning muayyan rolning tashuvchisi sifatida o’zini o’zi belgilashi boshqa odamlarning ushbu shaxsga nisbatan mavjud bo’lgan g’oyalarini amalga oshirish va qabul qilish orqali amalga oshiriladi, deb hisoblagan¹⁰. Freyd konsepsiyasining rivojlanishi bo’lgan Erikson yondashuvi shaxsning ongli “Men”- ego shakllanishining ijtimoiy-madaniy kontekstiga qaratilgan. “Men-konsepsiya” muammosi Erikson tomonidan biologik asosda paydo bo’lgan ma’lum bir madaniyat mahsuli sifatida tushunilgan ego-o’ziga xoslik prizmasi orqali ko’rib chiqiladi¹¹. “Men konsepsiya” tadqiqotchilari orasida R.Byornsning nazariyasi E.Erikson, J.Mid, K.Rojers kabi olimlarning qarashlariga asoslanadi. R.Byornsning fikricha, “Men konsepsiyaman”- bu o’zini o’zini kuzatish va o’z-o’zini baholash obyekt sifatida tasvirlash. Bu tasavvurlar haqiqiy “men”ga bo’linadi - men hozirgi paytda o’zimni qanday ko’raman; dinamik “men”- men kim bo’lishga intilaman; fantastik “men”- kim bo’lishni xohlardim; ideal “men” bu, uning fikricha, axloqiy me’yorlarga e’tibor qaratgan holda, subyekt nima bo’lishi kerak¹². Tekshiruv nazariyasi muallifi W.B.Swann ta’kidlaydiki, “Men-konsepsiya” boshqa odamlar tomonidan tasdiqlanishi kerak, bu esa dunyoni oldindan aytib bo’ladigan va boshqariladigan qiladi, yaqin munosabatlar va qurilish faoliyatining asosi hisoblanadi. Swan Shunga qaramay, o’zini-o’zi tasdiqlash konsepsiyasi muallifi, shaxsning xatti-harakatlarini belgilovchi omillardan biri sifatida o’zini o’zi tasdiqlash motivini ajratib ko’rsatadi.

O’z «Men»ining mavjudligini his qilish shaxsning hali chaqaloqligi aytdayoq boshlanadigan va uzoq davom etadigan, hamda rus psixologi I.S.Kon «Men»ning kashf etilishi» deb juda o’rinli atagan shakllanish jarayonining natijasi hisoblanadi. Rus olimlari V.S.Muxina N.I.Nepomnishaya 1984-yil o’z tajribalari asosida bola bir qancha xati harakatlarni mustaqil bajarish orqali o’z ehtiyojlarini qondirib boradi deb ta’kidladilar. Bu jarayon bolaning o’z mening ajratish va anglashga tayyorlash bosqichlardan biridir. Bunda shaxsning baholash tizimida rivojlanib borishida e’tiborini qaratib baholash shaxsning o’z-o’zini namoyon qilish mexanizmi, degan xulosa keladi. Bolaning “Men” va boshqa tushunchalarni anglashi shaxs sifatlarini tarkib topishini asosi bo’lib bolaning 6-7 yoshga borganda boshqalarga yordam

¹⁰ Эриксон Э. Г. Детство и общество / Пер. [с англ.] и науч. ред. А. А. Алексеев. -- СПб.: Летний сад, 2000. - 60 б.

¹¹ O’sha manba. 65 b.

¹² Бернс Р. Развитие Я-концепции и воспитание. - М.: Прогресс, 1996. – 220 с.

berish xayrixoh bo'lish kabi fazilatlarining mohiyatini tushina boshlashini ta'kidlaydi. Bola "Men"ini anglash mexanizmlar tizimlaridan biri bu shaxslar aro munosabatlar tizimi ekanligini ko'rsatib turadi. E.V.Ilvekov V.V.Davidov A.A.Bodalevlarning takidlashicha bola shaxsi taraqqiyoti anglash xususiyatli bilan bog'liq birinchidan baholash turiga ikkinchidan "Men" - "Men emas" munosabatiga bog'liq bu munosabat bola ongning mulqot va munosabat doirasida rivojlanib borishida bu esa ongning ijtimoiy shart sharoitlarini biladiradi.

Shu bilan birga maktabgacha yosh davrida bola shaxsi bilimlarini o'zlashtirish xulq me'yorlarini va usullari tanlash munosabat va faoliyat turlari jarayonida faol o'zlashtirish yangilikni mustaqil izlashga intilish mobaynida bola shaxsini tarkib topishini ta'kidlaydi¹³. Shaxsning shakllanishi jarayonini rus olimlari L.A.Venger va V.S.Muxinarlar nazariy o'rganib chiqib shaxsning tug'ilishini ikkiga ajratganlar. Shaxsning birinchi "tug'ulishi" bolaning o'z-o'zini anglaganing shakllanishi: O'zini alohida bir kishi sifatida ajratishi bu ilk bolalik davrida yuzaga keladi. Bola o'zini ismi va jismoniy qiyofasini bir biri bilan bog'lashni boshlaydi¹⁴.

Asosiy qism. Rus olimi N.I.Nepomnishaya 6-7 yoshli bola shaxsida tarkib topishi mumosini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan. U bola shaxsini tarkib topishini har tomonlama garmonik jihatdan munosabat muomila nuqtai nazaridan va ijodiy faolyat nuqtai nazaridan o'rganib chiqqan.

Bunda shaxning baholash tizimida rivojlanib borishida e'tiborini qaratib baholash shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish mexanizmi, degan xulosa keladi. Bolaning men va boshqa tushunchlarini anglashi shaxs sifatlarini tarkib topishini asosi bo'lib bolaning 6-7 yoshga borganda boshqalarga yordam berish xayrixoh bo'lish kabi fazilatlarining mohiyatini tushina boshlashini takidlaydi. Bola "Men"ini anglash mexanizmlar tizimlaridan biri bu shaxslar aro munosabatlar tizimi ekanligini ko'rsatib turadi. Shu bilan birga maktabgacha yosh davrida bola shaxsi bilimlarini o'zlashtirish xulq me'yorlarini va usullari tanlash munosabaat va faolyat turlari jarayonida faol o'zlashtirish yangilikni mustaqil izlashga intilish mobaynida bola shaxsini tarkib topishini ta'kidlaydi¹⁵.

Insonni o'zi haqidagi tasavvurlari, g'oyalari, baholari va xulq-atvor tendensiyalari yig'indisi "Men" konsepsiyasi deb ataladi. Boshqacha qilib aytganda, "Men" konsepsiyasi subyektni o'zi haqidagi eng umumiy ustanofkalari tizimidir.

¹³ Непомнящая Н.И. Становление личности ребёнка 6-7 лет. - Москва, "Педагогика", 1992. - 11 с.

¹⁴ Венгер А., Мухина В.С. Психология. - Москва: "Просвещение", 1988. - 240 с.

¹⁵ Непомнящая Н.И. Становление личности ребёнка 6-7 лет. - Москва, "Педагогика", 1992. - 15 с.

O'z «Men»ining mavjudligini his qilish shaxsning hali chaqaloqligi aytidayoq boshlanadigan va uzoq davom etadigan shakllanish jarayonining natijasi hisoblanadi. Chaqaloq dunyo yuzini ko'rishdan e'tiboran idrokida tevarak-atrofn va unga mehrgiyosi bilan termilayotgan kishilar muhitini aks ettira boshlaydi, dastavval ob'ektiv va sub'ektiv muhitga moslashish sodda tug'ma instinktlar, shartsiz reflekslar yordamida oddiy ta'sirlanish va taassurot tarzida namoyon bo'ladi. Taraqqiyotning mazkur davrida u o'zligini tushuna va anglay olmaydi, hatto buning yuzaga kelishi haqida mulohaza yuritishi ham aslo mumkin emas. Bola bir yoshgacha davrda tez sur'atlar bilan rivojlanadi, yil davomida uning jismoniy a'zolari 50 foizgacha takomillashishi mumkin.

Jismoniy o'sish-psixik taraqqiyotni tezlashtirishga puxta zamin hozirlaydi, natijada ko'rish, ushlash, yurish, talpinish, g'azablanish va quvonish, samimiylik ham beg'uborlik singari insoniy tuyg'ulari vujudga keladi, nutq faoliyati paydo bo'lishi uning tushunish darajasini yangi bir sifat bosqichiga ko'taradi. Bir yasharli bola o'z tanasining sezgirligi undan tashqaridagi buyumlar tufayli hosil bo'ladigan sezgilardan farqini anglay boshlaydi. So'ngra 2-3 yoshida bola buyumlar bilan o'z xususiy harakatlari jarayoni va natijasida hosil bo'ladigan xursandchilikning katta yoshdagilarning konkret harakatlaridan farqini ajratadi va kattalarga qarata: «Yo'q, men o'zim qilaman!» deydi. o'zini atrofdagi muhitdan faqat alohida ajratib olgan holda, emas, balki o'zini boshqalarning hammasiga qarama-qarshi («Bu seniki emas, meniki!») qo'ygan holda o'zini "birinchi marta o'zshshng xususiy harakatlari va xatti-harakatlari subyekti (bolaning nutqida shaxsiy olmosh paydo bo'ladi) sifatida anglay boshlaydi. Psixikaning muayyan xususiyatlari, holatlari orqali moddiy dunyoni tushuna boradi va unda, o'z faoliyatining mazmunida barcha ob'ektlarni amalga oshira boshlaydi. Bolalik dunyosining ichki murakkab qatlamlaridan asta-sekin «o'zlik»ni, shaxsiy «men»-likni tushunish tuyg'usi paydo bo'la boshlaydi. Bu taraqqiyot bosqichi psixologiya fanida «men» davri yoki «o'zlik»ni anglash davri deb yuritiladi, u taxminan 2,5 yoshdan boshlanib, bir nechta rivojlanish bosqichlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Materiallar va metodlar. Biz maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini anglash jarayonini o'rganish maqsadida tadqiqotlarimizni uch bosqichda tashkil etdik.

Birinchi bosqichda maktabgacha yosh davrida o'z-o'zini anglashning yuzaga kelish davri va "Men" va "Men emas", "Men boshqa" tushunchalarining anglashini o'rgandik. Buni eksperiment asosida o'rgandik.

Ikkinchi bosqichda bolaning "Men"ligini anglashini shaxsga xos fazilatlarining tarkib topishi bilan bog'liqligini o'rganib chiqdik.

Tadqiqotlarimizni birinchi bosqichida bolaning anglashini yuzaga kelishini aniqlash maqsadida eksperimentni o'tkazdik. Bunda bolaning qaysi davridan boshlab o'zini anglashi vujudga kelishi o'zini tanishi, fiziologik tuzilishi bilan bog'lay olishini, qachondan boshlab o'zini anglashini shaxs xususiyatlarini va fazilatlarini bilan bog'lay boshlashini o'rgandik. Buning uchun o'zbek oilalarida tarkib topayotgan 11 oylikdan 1,5 yoshgacha bo'lgan 6 nafardan bolalar qatnashdilar. Bolalarning 3nafari o'g'il bola 3nafari qiz bola tanlandi. Tanlab olingan bolalarning burnini uchiga qizil rangini surtib, oynaga qaratdik va ularning xatti- harakatlarini kuzatish kundaligiga, har bir bolaniki alohida quydagicha qayd etib bordik.

Natijalar. 11 oylik bolalar o'g'il bolalar ham qizlar ham oynada o'zlarini tanimadilar. Ular oynadagi aksini ko'rib uni ushlashga harakat qildilar, u bilan o'ynamoqchi bo'ldilar, ayrimlari uni tomosha qildilar.

Demak, ular o'zlarini tanimadilar. 12-13 oylik o'g'il va qizlar ham o'z akslariga qarab turdilar, ular o'z aksilarini tanimadilar. 14 oylikka kelib sinaluvchi qizlardan 2 nafari oynaga o'z akslariga qarab jilmaydilar, biri unga qo'l cho'zib ismini o'z tilida ifodalagan bo'lsa. Biri o'z aksiga qaradi keyin o'zigaqaradi. Buni bir necha marotaba takrorladi.

Demak, bu qizlar oynadagi o'z akslarini tanidilar. 15-16 oylik sinaluvchi qizlarning uchchalasi ham o'zlarini oynada tanidi. Lekin o'g'il bolalar g'ali o'z akslarini tanimadilar. Bosh va bola deb murojaat qildilar. Munosabat bildirdilar. 17 oylikdagi o'g'il bolalarnig biri o'z aksiga qarab o'z ismini aytdi. O'zini taniy boshladi. 18 oylikbolalarning barchasi o'zini oynadagi akslarigi qarab o'zlarini tanish oldilar.

1-jadval

Bolani o'zini anglashning yuzaga kelish bo'yicha olingan natijalar

№	Bolaning yoshi	O'zini anglay olgan bolalar soni	
		O'g'il bolalar	Qizlar
1	11 oylikda	-	-
2	12 oylikda	-	-
3	13 oylikda	-	-
4	14 oylikda	-	2
5	15 oylikda	-	3
6	16 oylikda	-	3
7	17 oylikda	1	3
8	18 oylikda	3	3

O'tkazgan eksperimentlarimiz najasida shunday xulosaga keldikki, bola 1 yoshu 2 oylik va 1,5 yosh oralig'ida o'zini taniy boshlaydi. Bu hali mazmun-mohiyati jihatdan o'zini anglash bo'lmasada. Bolaning o'zini anglab tilish jarayoni o'zini tanishdan boshlanadi deyish mumkin. Bola ismi bilan fiziologik tuzilishini bir biriga bog'lay boshlaydi. Shu tariqa "Men" ligini anglab yetish vujudga kela boshlaydi.

Biz tadqiqotlarimizni ikkinchi bosqichida bolaning o'zini angalsh xususiyatlarini o'rganish maqsadida 3-4 yoshli 10 nafardan iborat o'g'il va qiz bolalarda savolnoma o'tkazdik.

Savolnomada "Siz kimsiz?", "Siz qanday bolasiz?" degan savollar bilan murojaat qildik.

2-jadval

3 yoshli bolalarning "Siz kimsiz?" savoli bo'yicha natijalari

№	Bolalarning javoblari	Natijalar (Qaytarilish chastotasi)		Foiz hisobida
		O'g'il bolalar	Qizlar	
1	Ismi aytganlar	5	4	45
2	Qizi	-	2	10
3	O'g'il	1		5
4	Aya	-	1	5
5	Javob bermagan bolalar	4	3	35

Tadqiqotimizda bolaga kim ekanligini so'rab murojaat qilganimizda 3 yoshli bolalarning o'g'il bolalarning 5nafari, qizlarning 4 nafari ismlarini aytishdi. Qizi ekanligini 2 nafar arva o'g'il ekanligini 1 nafar bolalar, aya ekanligini 1 nafar qiz bola aytib o'tgan. O'g'ib bolalardan 4 nafari, qizlardan 3 nafari savolga javob bermadilar. Taxminimizcha, ular savolga javob berishni xohlamadilar yoki savolning mohiyatini tushunib yetmadilar. Lekin ulardan ayrimlar ismingiz nima, degan qo'shimcha savolimizga ismlarini aytib javob berdilar.

3-jadval

4 yoshli bolalarning "Siz kimsiz?" savoli bo'yicha natijalari

№	Bolalarning javoblari	Natijalar (Qaytarilish chastotasi)		Foiz hisobida
		O'g'il bolalar	Qizlar	
1	Ismi aytganlar	7	6	65
2	Qiz (o'g'il) bola	1	1	10
3	Qiziman		2	10
4	Sumurfetta		1	5
5	Qo'rqmas	1	-	5

Javob bermagan bolalar	1	-	5
------------------------	---	---	---

4 yoshli bolalarning 7 nafar o'g'il bola va 6 nafar qizlar kimligini o'z ismini ta'kidlash bilan izohlagan bo'lsalar, 1 nafardan bola jinsini, 2 nafar rolini. 1 nafar bola o'axs fazilati, 1 nafari ideali obrazida namoyon qilgan.

Xulosalar:

1. Bola 1 yoshu 2 oylik va 1,5 yosh oraliq'ida o'zini taniy boshlaydi. Bu hali mazmun-mohiyati jihatdan o'zini anglash bo'lmasada. Bolalarning o'zini anglab tilish jarayoni o'zini tanishdan boshlanadi deyish mumkin.

2. Bola ismi bilan fiziologik tuzilishini bir biriga bog'lay boshlaydi. Shu tariqa "Men" ligini anglab yetish vujudga kela boshlaydi.

3, Bola yoshi ortgan sari atrofdagi kishilar yordamiga o'zini anglash, tanish, xulq- atvori, shaxsiga xos sifatlarning anglash orqali bola taraqqiyoti yuzaga keladi.

Takliflar:

1. Maktabgacha yosh davrida shaxsning o'zini anglash jarayoni unda shaxsga xos xos fazilatlarni shakllanishida va bu insonning keyingi yosh davridagi kamolotida muhim ekanligini hisobga olib, maktabgacha yosh davrida bolaning o'zini anglash jarayoniga e'tiborni qaratish lozim.

2. Shaxs fazilatlarini shakllantirishda bolaning "Men" ligini tanish va keyinchalik anglay borish dastlabki bosqich ekanligini bolaning ta'lim- tarbiyasiga alohida e'tiborga olish kerak.

3. Shaxsining o'zini anglab yetilish jarayoni yoshga bog'liq yuzaga kelishi bilan bog'liqligi tufayli bolaning o'zini anglash va shaklini shakllanishini reja asosida, kundalik faoliyatining hamma jabhalarida bu e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Венгер А., Мухина В.С. Психология. - Москва, "Просвещение" 1988. - 240 стр.

2. Бернс Р. Развитие Я-концепции и воспитание. - М.: Прогресс, 1996. - 420 с.

3. Колядин А.П. Подходы к изучению «Я-концепции» в психологической науке. [Электронный ресурс] // Северо-Кавказский государственный технический университет (СевКавГТУ), [web-сайт]. 23.06.2007. <http://www.ncstu.ru>(20.04.2010).

4. Непомнящая Н.И. Становление личности ребёнка 6-7 лет. – Москва: “Педагогика”, 1992. - 160 с.
5. Тертель А.Л. Психология. Курс лекций: учеб. пособие. - М. : ТК Велби, Изд-во Проспект, 2006. - 248 с.
6. Эриксон Э. Г. Детство и общество / Пер. [с англ.] и науч. ред. А. А. Алексеев. - СПб.: Летний сад, 2000. - 300 с.
7. Sabirovna, Z.M. (2022). CHARACTERISTICS OF THE CHILD'S PERCEPTION OF THE ENVIRONMENT DURING THE PRESCHOOL AGE.
8. Zakirova, M., & Yuldasheva, M. (2022). Emotional well-being of children in preschool age. In *Проблемы психологического благополучия* (pp. 476-480).
9. Усмонов, Ш.А., Закирова, М.С., & Нуриддинов, Р.С. Ў. (2021). ИЛК ЎСПИРИНЛИК ДАВРИДА АҚЛИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИНГ ЭМПИРИК ТАҲЛИЛИ. *Современное образование (Узбекистан)*, (9 (106)), 12-16.
10. Закирова, М.С. (2021). РОЛЬ УЗБЕКСКИХ И РУССКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТНЫХ КАЧЕСТВ РЕБЕНКА. *ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ*, 325.
11. Закирова, М., & Юлдашева, М. (2022). Феномен одиночества как индивидуальный человеческий капитал личности студентов. In *Человеческий капитал как фактор социальной безопасности* (pp. 87-92).
12. Zakirova, M., & Sobirov, D.A. (2021). PSYCHOLOGICAL IMAGE OF THE STUDENT GROUP. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(4), 31-41.
13. Sabirovna, Z.M., & Vahobovna, A. O. (2022). CHARACTERISTICS OF PERSONALITY FORMATION IN THE SYSTEM OF VALUES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 1675-1679.
14. Антонова, Н.В., Буякс, Т.М., Ермолаева, Е.П., Зайнобиддинов, Ж.И., Заковоротная, М.В., Кузин АВ, К.Н.В., & Кузьмин АВ, О. РАЗДЕЛ 2. ПРОБЛЕМЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ СПЕЦИАЛИСТОВ.
15. Zaynobiddinov, S.Z., Mamatokhunov, Y.A., & Rakhmatulina, R. (2019). METHODOLOGY OF THE ORGANIZATION OF EDUCATIONAL AND METHODOLOGICAL ACTIVITIES OF PUPILS IN THE PROCESS OF FORMATION OF THEIR INDEPENDENCE AT PHYSICS LESSONS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(1).
16. Зайнобиддинов, Ж. (1989). Особенности влияния идентификации на формирование профессионально-педагогической направленности студентов. *Изд-во ЦКФЛРАО*.

17. Ж.Зайнобиддинов //IDENTIFICATION AND IMITATION ARE THE QUALITY OF MOTIVATION FOR CAREER CHOICE OF TEENAGERS// American Journal of Interdisciplinary Research and Development. Volume 17, June, 2023. 99-101.

18. Zaynobbiddinov Jamoldin. (2023). THE ORIGIN OF STUDENTS WHO DO NOT LEARN AT SCHOOL DEPENDS ON SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS. *Uzbek Scholar Journal*, 13, 54-59.

19. Zaynobbiddinov Jaloldin. (2022). STUDY OF NON-ASSIMILATING STUDENTS IN PSYCHOLOGICAL SOURCES IN FOREIGN LITERATURE *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 1680-1685.

20. ЗАЙНОБИДДИНОВ ЖАЛОЛИДДИН //ИДЕНТИФИКАЦИЯ КАК ФАКТОР ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ// ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ. Екатеринбург, 19 марта, 2021 года. 305-311 стр.

21. Зайнобиддинов, Ж. (2021). ИДЕНТИФИКАЦИЯ КАК ФАКТОР ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ. In *ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ* (pp. 305-311).

22. Ж.Зайнобиддинов //ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ ОЛАЁТГАН БОЛАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИНИ ПСИХОЛОГИК ЎРГАНИШ// INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023: a collection scientific works of the International scientific conference. 27 th June, 2023. Chelyabinsk, Russia: "CESS", 2023. Part 20. 1013-120.

23. Topvoldiyevna, M.E., & Adxam o'g'li, X. A. (2023). ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ МЫШЛЕНИЯ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ, ОБУЧАЮЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(1), 217-225.

24. Мирзажонова, Э., & Хомидов, А. (2022). КОМПЛЕКСНОСТЬ И ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОРРЕКЦИОННОЙ РАБОТЫ С ДОШКОЛЬНИКАМИ С НАРУШЕНИЯМИ РАЗВИТИЯ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(4), 209-219.